

TABIYY FANLARNI OQITISHDA EKOLOGIK XAVFSIZLIK MASALALARI

*Bo‘taylorova Tamara O‘ral qizi
Boshlang‘ich ta’lim fakulteti
boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi,
3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Maqlada ekologik ta’lim, atrof-muhitni muhofaza qilishning muhimligi, ekologik ta’lim-tarbiya va madaniyat ta’limiy sharoitda aniqlashtirilgan.

Kalit so’zlar: ekologik ta’lim va tarbiya, madaniyat, o’quvchilar, atrofimizdagi olam, tabiiy fanlar, tabiiy savodxonlik.

Insoniyat yaralibdiki, tabiat mahsuli sifatida u bilan uyg’un tarzda hayot kechirib kelmoqda. Biroq asrlar davomida insoniyatning o’zini o’rab turgan olamga ehtiyyotsizligi ta’sirining ortib borishi, tabiiy zaxiralardan nooqilona foydalana boshlagani natijasida ekologiyaga ko’plab zarar yetkazildi. Oqibatda tabiat va atrof-muxit ekologiyasidagi o’zgarishlar insoniyat boshiga misli ko’rilmagan ofatlarni solmoqda. Ayniqsa, atrof-muxit ekologiyasida sodir bo’layotgan tabiiy va texnogen hodisalar, jumladan, kuchli shamollar, to’fonlar, iqlim o’zgarishlari, yer silkinishlari, suv toshqinlari, tog’ ko’chkilari ko’plab insonlar hayotiga zomin bo’lmoqda, mamlakatlar iqtisodiyotiga katta zarar yetkazmoqda. Bugungi kunda yoshlarda ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirish to’g’ri yo’lga qo’yilmaganligi tufayli, favqulodda sodir bo’layotgan ekologik hodisalarga insoniyatni qanday yo’l tutishni bilmaslik evaziga, atrof-muhit ekologiyasidaga nisbatan ehtiyyotkorona munosabatda bo’lishga tegishli xulosalar chiqarishga chorlovchi omillarda ikkilanamiz. Ular odamlarni sergaklantirishi zarur. Buning uchun boshlang‘ich sinfda o’quvchilarga ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirishga oid tushunchalarni tarkib toptirish va atrof-muhitga ehtiyyotkorona munosabat masalasi insoniyat hayotining ajralmas bir qismi sifatida azaldan xalqimiz turmush tarziga chuqur singib ketgan.

Bugungi kunda ekologiya muammolari umumjahon muammosiga aylangan. Shu sababli, bu masala yechimiga big, ikki davlat emas, balki, o’z atrofimizdagi olam muvozanatini o’ylayotgan ko’pgina davlatlar e’tibor bermoqda. Hozirgi kunda yer sharining turli nuqtalarida keng quloch yozayotgan ekologik tangliklar tabiatga nisbatan to’g’ri munosabat bildirishimiz va unga ko’proq e’tibor qaratishimiz zarurligini anglatadi. Jumladan, bu

muammo yechimi respublikamizda ham davlat siyosati darajasigacha ko'tarilgan.

Mazkur muammolarni ijobiy hal etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktyabrb "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"[1] gi farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi 434-sون qaroriga asosan qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limdi rivojlantirish Kontseptsiysi"[2] ning qabul qilinishi yosh avlodga, ayniqsa yoshlarda ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirishda maktab, oila va mahallaning hamkorligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy va huquqiy asosini belgilab, yana bir qator yangi vazifalarni amalga oshirishni qo'ydi.

Mazkur farmon mamlakatimizda ekologik muammolarni bartaraf etish, aholining tabiatga bo'lgan munosabatini yaxshilash, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat organlari faoliyatida shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi. Farmonda ekologiyaga doir o'ta muhim vazifalar belgilangan. Jumladan, qo'riqlanadigan tabiiy hududlarni kengaytirish, zaharli va radioaktiv moddalardan ekologik xavfsiz foydalanish, chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirishning ekologik xavfsiz tizimini takomillashtirish kabi vazifalarni bajarish asnosida inson va tabiatni, hayvonot dunyosini turli zararli omillardan asrashga erishiladi.

O'zbekiston Respublikasi tabiatni va uning muhofaza qilinishi inson taqdirida naqadar muhimligini ta'kidlab birinchi prezidentimiz I.A. Karimov bunday degan edi: "Ekologik xavfsizlik kishilik jamiyatining buguni va ertasi uchun dolzarbliji, juda zarurligi bois eng muhim muammolar jumlasiga kiradi. Bu muammolar amaliy tarzda hal etilsa, ko'p jihatdan hozirgi va kelgusi avlod turmushining ahvoli, sifatini belgilash imkoniyatini beradi".[3] Shu bois ekologik xavfsizlikni kuchaytirishning asosiy yo'nalishlari tegishli texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, tabiiy zahiralardan oqilona foydalanish, aholi yashashi uchun qulay shart - sharoitlarni yaratish, ekologik kulfatlar jahon kulfatini ekanligini ilmiy asoslangan holda, mazkur asarda ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglash orqali ma'naviy - ruhiy tiklanish sodir bo'lishini, insonning va uning boyliklariga bo'lgan munosabatiga jiddiy e'tibor qaratish lozimligini yoritib bergen. Asarda islom dinidan oldingi madaniyat tabiatdan oqilona, uyg'un foydalanishan an'analarini o'rgangan holda ajdodlarimizning axloq - odob qoidalaridan hozirgi kun tabiat ekologiyasi uchun foydalanish zarurligi qayd etilgan.

Demak, maktab o'quvchisida ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirish nafaqat davlat ishi, balki bu borada oila, maktab, qolaversa, mahalla ham, butun

jamoatchilik ma'sul bo'lib, o'quvchilarning ma'naviy yetukligi darajasini ta'minlaydigan asosiy omil hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'limga muktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirishda muktab, oila va mahallaning hamkorligini yo'lga qo'yish eng avvalo, oiladan boshlanadi va muktabda, mahallada davom etirilib, ular o'rtasida uzviy aloqa o'rnatiladi hamkorligi tarkib topib boradi. Ekologik dunyoqarashni shakllantirishning negizi oiladagi tarbiyaga bevosita bog'liqdir. Ajdodlarimiz farzand tarbiyasi masalasiga alohida e'tibor bilan qaraganlar va bu borada ibratli an'analarini vujudga keltirganlar. Bolalar go'daklik chog'laridayoq axloqiy va mehnat tarbiyasini oilada boshlaganlar. Ularda mehnatga muhabbat, atrof - muhitga hurmat, obodonchilik va ko'kalamzorlashtirish hissi sabot bilan singdirilgan. Masalan, atrofni ifloslantirmaslik uchun axlatlarni alohida chuqurchalarga tashlash, ariq, soy, buloq, suvlaridan uzoqroq joyda kovlash, yong'in chiqmasligi chorasi ko'rish turli ehtiyojlar uchun yashnab turgan daraxtda emas, balki qurib qolganlaridan foydalanish nihollarni sindirib, payhon qilmaslik, qushlarning uyasini buzmaslik kabi xatti - harakatlar shakllantirilgan.

Oila davrasida farzandlarga suvg'a tuflama, uni iflos qilma, chunki barcha jonivorlar uni ishib baha oladi. Gullab turgan mevali daraxtning shoxini sindirma, u meva beradi, uni o'zing is'temol qilasan, Pishib yetmagan uzumni uzma, agar uzsang kata gunoh ish bo'ladi. Chunki unda ahli mo'minning nasibasi bor - deb pandu - nasihatlar qilganlar. Ertaklar vujudga kelgan. Ekologik ta'limga va tarbiyalash tizimi bog'chalarida, umumiy o'rta ta'limga muktablarida, keyingi ta'limga bosqichlarida hamda mehnat jamoalarida davon ettiriladi.

Yoshlar orasida ekologik bilimlarini targ'ib qilish va ekologik madaniyatni tarkib toptirish vazifasi ta'limga muassasalari, oila, mahalla, keng jamoatchilik bilan hamjihatlikda olib borilishi yaxshi natijalarini berishini ta'kidlagan holda, asosiy ma'suliyat pedagoglar zimmzsiga yuklanadi. O'quvchilar ekologik yo'nalishdagi nazariy bilimlarni boshlang'ich sinflarda o'qitilayotgan "Tabiatshunoslik" fani bo'yicha oladilar. Bundan tashqari "Odobnomal" darslarida shuningdek, ekologik mavzulardagi turli ma'naviy - ma'rifiy tadbirda to'xtaladi. Masalaning muammoli tomoni shundaki bo'lg'usi yosh mutaxassislarda nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash malakalari to'la tarkib topgan emas. Bugungi kunda yoshlarda tabiatga nisbatan insonparvarlarcha munosabatni shakllantirish masalasi ko'ndalang turganekan demak, pedagog kadrlar o'z mehnat faoliyatini davomida yoshlarda tabiat qonunlar, inson va tabiat va ularning o'zaro

mutanosibligi, tabiiy muvozanatni saqlash haqidagi bilimlarni va bular negizida ekologik madaniyatni tarkib toptirishlari, shuningdek, o'quvchilar orasida ekologik mavzulardagi tarbiyaviy ishlarni puxta rejalashtirishlari va amalga oshirishlari lozim bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiat olami, undagi voqeа - hodisalar o'rtaсидagi bog'liqlik to'g'risida aniq bilimlar berish, o'quvchilarda tabiat, uni asrab - avaylash, uni boyitishga oid faoliyatni shakllantirish, o'quvchilarni davlatimizning tabiatini qo'riqlash uni asrab avaylash bo'yicha olib borilayotgan ishlar o'qituvchilar, ota – onalar, jamoatchilik bilan o'zaro hamkorlikda izchil tarzda tarbiyaviy ishlar orqali amalga oshirib borishni talab etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirishga oid tushunchalarni fanlararo shakllantirish tahlili shuni ko'rsatadiki atrofimizdagи tabiat haqidagi bilimlar quyidagicha birlashtiriladi:

1. Jonli, jonsiz tabiatning o'zaro aloqadorligi va farqi;
2. Tabiat jismlari va ularning hususiyatlari;
3. Tabiat komponentlari va o'zaro aloqadorligi;
4. Tabiat hodisalari va ularning ta'siri;
5. Koinot va uning Yer sayyorasi bilan aloqadorligi;
6. O'zbekiston tabiatni va uni muhofaza qilish;
7. Atrofimizdagи tabiatga oqilona munosabatlarni shakllantirish;
8. Hayvon va o'simliklar ishtirokida mashq va masalalar yechish, rasm va haykalga ishlov berish, ijodiy topshiriq va muammoli savollarni hal etish.

Darhaqiqat, yon atrofimizga bizni o'rab turgan ona tabiatimizga qancha mehr qo'ysak, vatanimiz kelajagiga shunchalik g'amxo'rlik qilgan bo'lamiz. Ta'lim sohasida olib borilayotgan islohatlarning asosiy maqsadi - jismonan sog'lom va aqlan yetuk intellektual salohiyatga ega bo'lgan komil insonni tarbiyalashga qaratilgan. Bu esa o'z navbatida har bir o'quv faniga o'zgarishlar kiritib yangiliklar yaratishni taqozo etadi. Jumladan, ekologik ta'lim - tarbiyaga bo'lgan munosabatda har bir qator noan'anaviy uslublarni joriy etishni zaruriy vazifa qilib qo'yiladi. Chunki bugungi ekologik muammo bilan atroficha tanishtirilmagan o'quvchi atrofimizdagи olam - tabiatga qanday munosabatda bo'lish haqida shaxsiy fikr yurita olmaydi.

O'quvchilarni tabiatni asrashga o'rgatishni har bir inson tabiatning bir bo'lagi ekanini anglatishdan boshlash lozim. Ana shu o'quvchilar tabiatni asrash, avvalo, o'zimizni va yaqinlarimizni asrashdir, degan fikrga keladi. O'quvchilarni tabiat bilan yaqindan tanishtirish sodir bo'layotgan tur xil ekologik hodisalardan voqif qilish bugungi kunda pedagogik nazariyasi va amaliyotida, boshlang'ich ta'limda

muhim yo'nalishga aylanmoqda. Bu yer yuzidagi og'ir ekologik vaziyatlarning vujudga kelishi bilan bog'liq. Bunday holatning yuzaga kelish sabablaridan biri aholi katta qismining ekologik savodsizligi va uning tabiatga ta'siri natijasini ko'ra olmaslidir. Shuning uchun ham Yunesko, Yunisef va boshqa tashkilotlar tomonidan sayyoramizda yashovchilarning ekologik ta'limning mazmuni va muddati masalasi ilgari surilmoqda. O'quvchilarning ekologik ta'limida tabiiy ilmiy bilimlarni egallashda eng muhim bosqich - boshlang'ich ta'lim hisoblanadi. Boisi, insonning tabiatga, kelajakka munosabati shu davrdan boshlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktyabr "2030 yilgacha bo'lган davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. //Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2019 yil 31 oktabr
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi 434-sonli qarori.//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2019 yil 28 may
3. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., 1997, -110-133 b.
4. Mukhtarova L.A. Ways of formation of ecological culture in children of primary age // AJMR:Asian Journal of Multimensional Research Journal. Vol 10, Issue 4, April, 2021. - Pp 648-652. (Impact Factor 7.699).
5. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH SINFLARDA RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI. Апробация, (2), 93-94.
6. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. НАУЧНЫЙ ПОИСК В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ (pp. 119-120).
7. Mukhtarova, L. A. (2021). THE USE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF A CULTURE OF ENVIRONMENTAL SAFETY. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 792-797.
8. Mukhtarova Lobar Abdumannabovna. (2021). POSSIBILITIES OF AN INTEGRATIVE APPROACH TO THE FORMATION OF A CULTURE OF ENVIRONMENTAL SAFETY. European Scholar Journal, 2(11), 43-44.

9. Muxtarova, L. A. (2021). Ways of formation of ecological culture in children of primary age. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 10(4), 648-652.
10. Muxtarova, L. A. (2021). Use of multimedia technologies in the educational process. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1781-1785.
11. Мухтарова, Л. А. (2018). Пути Использования Возможностей Мультимедиа В Повышении Качества И Эффективности Уроков Чтения В Начальных Классах. *Научные горизонты*, (11-1), 247-252.
12. Мухтарова, Л. А. (2018). Развитие И Формирования Критического Мышления У Школьников Начальных Классах. *Гуманитарный трактат*, (24), 13-14.
13. Мухтарова, Л. А. (2018). Развитие творческого мышления у школьников начальных классов. *Гуманитарный трактат*, (24), 9-10.
14. Kulmuminov, U., & Mukhtarova, L. (2023). POSSIBILITIES OF CREATIVE THINKING AND ITS MANIFESTATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *Open Access Repository*, 4(02), 81-84.
15. Abdimannabovna, M. L. (2022). Opportunities for an Interdisciplinary Integrated Approach to Improving the Culture of Environmental Safety. *Eurasian Scientific Herald*, 7, 7-12.
16. Munzifa Tangirova, & Lobar MUKHTAROVA. (2023). WAYS OF READING LITERACY DEVELOPMENT IN PRIMARY SCHOOL PUPILS. *European Scholar Journal*, 4(2), 88-89. Retrieved from
17. Lobar Mukhtarova, & Shahnoza Isakova. (2023). METHODOLOGY OF SPEECH DEVELOPMENT OF VISUALLY IMPAIRED STUDENTS. *Academia Repository*, 4(10), 360–371. Retrieved from
18. Mukhtarova Lobar Abdimannabovna, & Saidakhmatova Nafisa Soatmurod kizi. (2023). DEVELOPMENT OF READING UNDERSTANDING SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Academia Science Repository*, 4(04), 18–22. Retrieved from
19. Nafisa Saidakhmatova, & Lobar Mukhtarova. (2023). THE SIGNIFICANCE OF ARTWORK IN THE FORMATION OF LEARNING SKILLS. *Academia Science Repository*, 4(04), 176–180. Retrieved from
20. Pardayeva Gulbahor Jalgashevna, & Mukhtarova Lobar Abdimannabovna. (2023). PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF TEACHING NATURAL SCIENCES BASED ON STEAM TECHNOLOGY. *World Bulletin of Social Sciences*, 21, 109-111. Retrieved from

21. Feruza RAKHMONOVA, & Lobar MUKHTAROVA. (2023). THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF FORMING A CULTURE OF READING IN PRIMARY EDUCATION. *European Scholar Journal*, 4(3), 5-7. Retrieved from
22. Saodat MINGNOROVA, & Lobar MUKHTAROVA. (2023). THE METHODOLOGY OF DEVELOPING THE CREATIVITY OF THE BEGINNING 1ST CLASS TEACHER WITH THE HELP OF ETHNOPEDAGOGY. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 33-37. Retrieved from
23. Daminova Dilbar Melimurodovna, & Mukhtarova Lobar Abdimannabovna. (2023). PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES OF FORMING MATHEMATICAL LITERACY SKILLS OF PRIMARY SCHOOL PUPILS. *Open Access Repository*, 4(3), 971–976.